



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI
JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
"IJTIMOIY FANLAR"
KAFEDRASII HAMKORLIKDA

"SUN'Y INTELEKT DAVRID A MILLIY O'ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA
ZAMONAVIY RIVOJLANISH"
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE
ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"
international scientific-practical conference

«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В
ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА:
ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ
И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ»
международной научно-практической конференции

KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO'PLAMI

(II - JILD, III - IV SHO'BALAR)

2026-YIL
4-APREL

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI
JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
“IJTIMOIY FANLAR”
KAFEDRASI HAMKORLIKDA**



**“SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY
RIVOJLANISH”**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE ERA OF
ARTIFICIAL INTELLIGENCE: TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"**

international scientific-practical conference

**«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭПОХУ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ
НАСЛЕДИЕ И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ»**

международной научно-практической конференция

**KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

(II - JILD, III-IV SHO‘BALAR)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida 2026 yil 4 aprel kuni Jizzax politexnika institutida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

JIZZAX-2026



CERTIFICATE

THIS CERTIFICATE IS AWARDED TO

Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi

for his/her outstanding and invaluable contribution
to the international scientific conference
"National Self-Awareness in the Era of Artificial Intelligence:
The Historical Heritage of Turon and Modern Development"

Rector



A.Usmankulov



2026-yil 4-aprel

INTELLEKT VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIIY-GUMANITAR OMILLARI.....	
Razzoqova Surayyo Muzaffarovna. TURAR-JOY BINOLARIDA ISHLATILADIGAN ENERGIYA TEJAMKOR LOK-BO‘YOQ MATERIALLARI.....	115
Малик Гулшат Жаксыбеккызы, Эрманова Дина Рустамовна, Исахова Улжан Кемелбековна. ПОВЫШЕНИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ.....	118
Jo‘raqulova Nurmohi Ne‘matulla qizi. MUSTAQILLIKKACHA BO‘LGAN DAVRDA BAXMAL TUMANIDA TIBBIYOT SOHASINING HOLATI (1980-1990-YILLAR ORALIG‘I).....	124
Abdulkhakimova Mahliyo Ravshan qizi. QUYOSH PANELLARINI ISHLAB CHIQUARISHDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ULARNING ATROF-MUHITGA TA’SIRI.....	127
GAPPAROV BEXZOD NEMATILLAEVICH. RAQAMLI MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	130
Ortiqov Anvar Aliddin o‘g‘li. KOMPYUTER YORDAMIDA LOYIHALASH (CAD, CAM, CAE) TEXNOLOGIYALARINING TRANSPORT VOSITALARINI LOYIHALASHDAGI AHAMIYATI.....	134
Saparbayev Shaxriyor Xamdam o‘g‘li, Axadqulov Xasan Ilxom o‘g‘li, Tajibayev Muxiddin Abdurashidovich. SUN’IY INTELLEKT (AI) TEXNIKASINI AVTOMOBIL AVTOMATIK BOSHQARUVIDA QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI VA CHEKLOVLARI.....	138
Одилова Барчиной. НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ПЕРЕВОДЕ С УЗБЕКСКОГО НА РУССКИЙ ЯЗЫК В РАБОТАХ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ	141
Ташкенбаев Таштемир Ташкенбаевич. РОЛЬ ПЕРЕВОДА В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ: НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОД МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ.....	146
ХАКИМОВ АЛИШЕР ОЛИМЖОНОВИЧ. ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТИРОВ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ: УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОРЕКТОРА ПО ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЕ В УНИВЕРСИТЕТЕ SARBON.....	152
KAMILBAYEV SUNNATILLO BAHROM O‘G‘LI, TOSHQULOV LOCHINBEK JAMOLIDDIN O‘G‘LI, Tajibayev Muxiddin Abdurashidovich. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING O‘QUV JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHDAGI O‘RNI.....	156

MUSTAQILLIKKACHA BO‘LGAN DAVRDA BAXMAL TUMANIDA TIBBIYOT SOHASINING HOLATI (1980-1990-YILLAR ORALIG‘I)

Jo‘raqulova Nurmohi
Ne‘matulla qizi
JDPU 2-bosqich tayanch
doktoranti
[**jurokulovanur@gmail.com**](mailto:jurokulovanur@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Baxmal tumanida mustaqillikdan oldingi davrda Baxmal tumanida joylashgan tibbiyot muassasalarining holati, ularda amalga oshirilib kelgan tadbirlar, erishilgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Baxmal, sovxoz, muassasa, tibbiyot, dispanser, bog‘cha.

Baxmal - hozirgi kunda Jizzax viloyatiga kiruvchi tuman hisoblanib, tuman urush yillarida hozirgi Jizzax viloyatining Jizzax, Zomin, Forish va G‘allaorol tumanlari tarkibiga kirgan [1]. Tumanning hozirgi hududida 1943-yili G‘allaorol tumanining sovxozlari bazasida Qoraqishloq tumani tashkil topgan. U 1957-yili yana G‘allaorol tumaniga qo‘shilib ketadi. O‘zbekiston SSR Oliy Prezidiumining 1971-yil 1-sentyabr farmoniga binoan yana Baxmal tumani tashkil topdi. Tuman G‘allaorol tumanining “Baxmal”, “Sangzor”, “Qoraqishloq” sovxozlari, Baxmal o‘rmon xo‘jaligi va Bulung‘ur tumanining “Gulbuloq”, “Uzunbuloq”, “Rassvet” kabi sovxozlar bazasida vujudga kelgan [2]. Baxmal tumani Jizzax viloyatining ham ijtimoiy ham iqtisodiy va madaniy hayotiga, rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib kelayotgan muhim hududlardan biri sanaladi. Tuman tarixi bo‘yicha adabiyotlarda juda kam ma‘lumotlar uchraydi. Ushbu hududning olimlar tomonidan geografik istiqbollari va imkoniyatlari darajasi, til lahjalarining shakllanishi va tarqalishi kabi xususiyatlari ko‘proq o‘rganilgan bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning muhim sohalaridan biri bo‘lgan tibbiyoti va ta’limi hamda bu sohalarining holati, rivojlanish bosqichlari haqida manbalar va ma‘lumotlar kam o‘rganilgan. Bu sohalar asosan arxiv va tegishli saqlanib kelinayotgan gazeta ma‘lumotlariga asosan yoritilish imkonini taqozo etadi.

1988-yillar arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra, jamiyat rivojlanishining hamma bosqichlarida xalq salomatligini mustahkamlash davlatning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan. Negaki salomatlik har qanday shaxs uchun cheksiz boylik sanaladi. Sog‘lom shaxsda mehnat unumdorligi va sifati yuqori bo‘ladi. Shu boisdan onalik va bolalikni himoya qilish va xotin-qizlar turmush madaniyatini yaxshilash borasida tuman shifokor va o‘rta tibbiyot xodimlari ham o‘z vazifalarini ado etgan holda yordam berib borishganligi ma‘lum.

Katta shifokor va tibbiyot xodimlarning mehnat samaradorligini yaxshilash borasida qator tadbirlar amalga oshirilgan:

- birinchi navbatda tug‘uruqxona bo‘limi kengaytirilgan;
- bolalar konsultatsiyasi bo‘limi bolalar shifoxonasiga aylantirilgan;
- 500 kishiga mo‘ljallangan sut mahsulotlari tayyorlaydigan oshxona faoliyat yuritgan;
- nimjon, chala va kislorod yetishmay tug‘ilgan bolalarni parvarishlaydigan yosh bolalar potologiyasi bo‘limi doimiy faoliyat yuritgan;
- og‘ir ahvolda shifoxonaga tushgan bemorlarda alohida xizmat ko‘rsatadigan reanimatsiya bo‘limi doimiy faoliyati ta‘minlangan [3].

Bu bo‘limlarning asosiy vazifasi samarali tibbiy yordam sohasini yaxshilash hamda onalik va bolalikni himoya qilish hisoblangan. Mana shu kabi islohotlar natijasida tibbiyot sohasi rivojlanib borgan, bolalar va onalar o‘limi ham yildan- yilga kam qayd etilgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1986-yilda 5 ta onalar o‘limi qayd etilgan bo‘lsa, 1987-yilga kelib 3 tani tashkil etib, 1988-yilning birinchi yarmida umuman qayd etilmagan. Bolalar orasida o‘lim darajasi 1986-yil 52,9%, 1987-yil 50,1% va 1988-yilning birinchi choragida 45,2% ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar Uzunbuloq, Barlos, Oyqor qishloq Sovetlarida eng ko‘p foizni tashkil qilgan [4].

1987-yil davomida mahalliy soha xodimlari va to‘y nazoratchilari to‘ylarni tobora kichraytirish va zamonaviy ixcham uslubdagi to‘ylarni doimiy targ‘ib qilishi natijasida ba‘zi cheklanishlarga erishganligi kuzatilsada, spirtli ichimliklarning iste‘mol qamrovini kamaytira olishmagan. Bu narsa birinchi navbatda aholi tinchligi va salomatlik darajasiga ziyon yetkazgan. Shuningdek, aholi orasida nikohdan bir oy oldin ariza berish hamda yoshlar orasida tushuntirish ishlari olib borilishi faqat hujjatlar ko‘rinishida bo‘lgan. Qarindoshlar ya‘ni amakivachchalar, xolavachchalar kabi yaqinlar orasida nikoh ko‘p qayd etilganligi natijasida befarzandlik, chala yoki nosog‘lom tug‘ilish va har xil tug‘ma belgilari bilan dunyoga kelish holatlari ko‘p uchragan.

Keltirilishicha, qarindoshlar oilasida tug‘ilgan bolalarning kasallikka chalinish darajasi va tabiatga moslasha olmasligi begonalar turmush qurganida tug‘ilgan bolalarga qaraganda o‘lim 10-15 barobar ko‘p ekanligi aniqlangan [5].

Joylarda 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar kasalxonalarga juda kech ya‘ni, ilgirga olib borilib, mulla va baxshilarga boqtirib so‘ng keltirilgan. Bolalar o‘z vaqtida oziqlantirilmagan, parvarishda gigiyenaga rioya qilinmasligi oqibatida kasallikka chalinish ko‘p uchragan. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun shifoxona ma‘muriyati tomonidan shifokorlar hududlarga oyiga ikki marta borib, hisobga kiritilgan bemorlarni nazorat qilgan. Bundan tashqari tuman gazetasi sonlarida ham shu masalaga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar chop etib borilgan. Shu kabi tadbirlar olib borilishiga qaramay, onalarning asosan uy ishlari, mol boqish bilan band bo‘lishi, to‘g‘ri ovqatlanmasliklari natijasida bemor ayollarning har uchtadan ikkitasida kamqonlik

kasalligi ko‘p uchragan. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun hukumat 2000-yilga qadar bo‘lgan davrda sovxozlararo zamonaviy shifoxona qurishni tashkillashtirishni [6] rejaga kiritgan.

Baxmal tumani birlashgan kasalxonasi bosh shifokorining xalq deputatlari Baxmal tuman soveti ijroiya komitetiga 1987-yilning 22-sentyabridagi № 247/10 sonli “O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining V sessiyasida bildirgan tanqidiy taklif va mulohazalarni ijro qilish tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bo‘yicha qilingan ishlar haqida ma‘lumot berganda, olib borilgan tadbirlar orasida [7] tibbiyot xodimlari o‘rtasida mehnat va davlat intizomi birmuncha yaxshilanganligi, bo‘limlar o‘rtasida kasbiy musobaqa yo‘lga qo‘yilganligi va ushbu musobaqa natijasida yil oxirida g‘olib bo‘lgan xodimlar moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirilib borilayotganligi kabilar ta‘kidlangan. Kamchiliklar orasida eng dolzarblaridan biri kichik tibbiyot markazlari muzlatgich bilan ta‘minlanmaganligi bo‘lgan.

Xalq deputatlari tuman Soveti yig‘ilishlarida bolalarni vaqtida emlash, homilador va yosh bolali onalarni hisobga olish, vaqti-vaqti bilan shifokor ko‘rigidan o‘tkazib borish ishlarida sustkashliklarga yo‘l qo‘yilib kelinganligi [8] haqidagi muammolar alohida tanqid qilinib, ularni bartaraf etish maqsadida tegishli qarorlar qabul qilingan bo‘lsada, bu qarorlarning ijrosi to‘liq nazoratga olinmagan.

1988-yil ma‘lumotlariga binoan, bu paytda tumanda jami 106 ta oliy ma‘lumotli shifokorlar, 272 tadan ortiq o‘rta maxsus tibbiyot xodimlari ishlagan, davolash muassasalari ham uzluksiz ko‘payib borgan. Jumladan, yil davomida tuman shifokor va o‘rta tibbiyot xodimlari aholini yoppasiga dispanser ko‘rigidan o‘tkazish tadbiriy ish rejalari tuzib, shu asosda bemorlar dispanser hisobiga olinib davolash ishlari o‘tkazilgan. Dastlab 39953 kishi dispanser ko‘rigidan o‘tib, shundan 1689 kishi dispanser hisobiga olinib, ularni davolash ishlari olib borilgan [9]. Bu ish boshlangan ikki oyi ichida 386197 ta bemor shifokorlar tomonidan qabul qilingan. Shu davr ichida kasalxonalarga 14670 ta bemor qabul qilinib, 14505 ta bemor davolanib chiqarilgan. Mana shu ikki oy davomida 2941 ta bolalar tug‘ilgan bo‘lib, tug‘ilish ko‘rsatkichi 41,1%, umumiy o‘lim ko‘rsatkichi 6,6%, bolalar o‘limi ko‘rsatkichi esa 52,0% ni tashkil etgan.

Umuman olganda, Baxmal tumanida tibbiyotning holatini yaxshilash, aholi salomatlik darajasini oshirish borasida qator amaliyotlar amalga oshirilishiga qaramasdan aholi orasida hali ham e‘tiqodlarga ishonib harakatlanish holatlari ko‘plab uchrab turgan. Davlat aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga harakat qilganligi uchun birmuncha ijobiy natijalarga erishib borilgan. Shuningdek, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va kadrlar sonini oshirishga ham alohida ahamiyat qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xotira. “Mehnat” Toshkent. 5-bet.

2. “Zafarlardan so‘zlar bayroqdor Baxmal”// ” Jizzax haqiqati” gazetasi 1984-yil № 32-son (1533). -B.3.
3. G‘allaorol tuman arxivi. Fond-101, ro‘yxat-1, yig‘ma jild- 1501, 77 varoq.
4. O‘sha manba.
5. O‘sha manba.
6. G‘allaorol tuman arxivi. Fond-101, ro‘yxat-1, yig‘ma jild- 1501, 77 varoq.
7. G‘allaorol tuman arxivi. Fond-101, ro‘yxat-1, yig‘ma jild- 1496, 166 varoq.
8. G‘allaorol tuman arxivi. Fond-101, ro‘yxat-1, yig‘ma jild- 1500, 45 varoq.
9. O‘sha manba.

QUYOSH PANELLARINI ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ULARNING ATROF-MUHITGA TA’SIRI

Abdulkhaimova Mahliyo
Ravshan qizi
Jizzax politexnika insituti
magistranti
Ilmiy rahbar Tirkasheva
Muqaddas Bahramovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan quyosh panelllarini ishlab chiqarishning texnologik bosqichlari atroflicha tahlil qilingan. Unda kremniyni tozalash, ingotlar tayyorlash va fotoelektrik elementlarni yig‘ish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, panellar tarkibidagi kimyoviy moddalarning atrof-muhitga, ekotizimga va inson salomatligiga ko‘rsatadigan ta’siri hamda ularni xizmat muddati tugagandan so‘ng utilizatsiya qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida quyosh energetikasining ekologik samaradorligini oshirish bo‘yicha tegishli xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: quyosh paneli, kremniy, fotoelement, ekologiya, muqobil energiya, utilizatsiya, ingotlar.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida energetika xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta’minlash eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Dunyo bo‘ylab an’anaviy yoqilg‘i manbalari (ko‘mir, neft, gaz) zaxiralarining kamayib borishi hamda ularni yoqish natijasida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining global iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘layotgani muqobil energiya manbalariga o‘tishni taqozo etmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya turlari orasida quyosh energetikasi o‘zining cheksizligi, ekspluatatsiya jarayonida shovqinsizligi va atrof-muhitga zaharli tashlamalar chiqarmasligi bilan alohida ajralib turadi.